



SOME CONSIDERATIONS ON THE HISTORY OF THE CRAFT CENTERS OF THE KHOREZM OASIS (10TH-EARLY 13TH CENTURIES)

Mansur Sobirov

Lecturer

Urgench State University

Urgench, Uzbekistan

E-mail: mansurtarix@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Manilov Yu.P, Sobirov Q, Khojaniyazov G.K, Baratov P, Mamakulov M, Rafiqov A, Kdyrniyazov M.Sh, Dospanov A, Askarov A, Turebekov M, Mambetullaev M, Vakturskaya N.N, Hakimniyazov J, Ershov S.A, Katta Guldursun, Qizilqala, Jampiqqala, Dargon, Hazorasp, Khiva, Mizdakhkan, Katqala, Gurganj, Devkesgan, Zamakhshar, Shahsanam.

Received: 23.02.25

Accepted: 25.02.25

Published: 27.02.25

Abstract: This article highlights the history of handicraft centers in the villages and cities of the Lower Amu Darya region.

XORAZM VOHASI XUNARMANDCHILIK MARKAZLARI TARIXIGA OID BA'ZI MULOHAZALAR (X-XIII ASR BOSHLARI)

Mansur Sobirov

o'qituvchi

Urganch davlat universiteti

Urganch, O'zbekiston

E-mail: mansurtarix@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Manilov Yu.P, Sobirov Q, Xojaniyazov G.K, Baratov P, Mamaqulov M, Rafiqov A, Kdyrniyazov M.Sh, Dospanov A, Asqarov A, Turebekov M, Mambetullaev M, Vakturskaya N.N, Xakimniyazov J, Yershov S.A, Katta Guldursun, Qizilqala, Jampiqqal'a, Darg'on, Hazarasp, Xiva, Mizdahqon, Katqala, Gurganch, Devkesgan, Zamakhshar, Shahsanam

Annotatsiya: Maqolada Quyi Amudaryo xududida qishloq va shaxarlari xunarmandchilik markazlari tarixi yoritilgan.

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ПО ИСТОРИИ РЕМЕСЛЕННЫХ ЦЕНТРОВ ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА (Х – НАЧАЛО XIII ВВ.)

Мансур Собиров

преподаватель

Ургенчский государственный университет

Ургенч, Узбекистан

E-mail: mansurtarix@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Манылов Ю.П., Сабиров К, Ходжаниязов Г.К, Кдырниязов М.Ш, Доспанов А, Вактурская Н.Н, Хакимниязов Ж, Ершов С.А, Большой Гульдурсун, Кызылқала, Жампиккалъа, Даргон, Хазарасп, Хива, Миздахкан, Каткала, Гурганч, Девкесган, Замахшар, Шахсанам

Аннотация: В статье отражены истории центров ремесло сельских поселений и городов территории Низовья Амударьи.

Kirish. IX-XI asrlar jamiyatini barcha sohalarida rivojlanish jarayoni faollashishi sifatida O‘zbekiston tarixida muhim davr sanaladi. Mazkur tarixiy davr axoli markazlarida ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari birlashishi natijasida savdo va xunarmandchilik markazlarining jadal suratda rivojlanishiga bo‘lgan iqtisodiy va madaniy asos milodiy VI asr ikkinchi yarmidan boshlangan urbanizatsion jarayon bo‘lgan edi. Mazkur maqolada IX-XI asrlarda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarning ko‘zgusi bo‘lgan qishloq va shaxarlar tarixini yoritish maqsad qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning taxlili

1. Amudaryo o‘ng sohili xududida xunarmandchilik va savdo markazlari:

Katqal’-a-Amudaryo sohili xududiga tutashgan tekislikda joylashgan. Tarxi kvadrat shaklda, Amudaryo yuvib ketganidan keyin 219 gektardan 44 gektarga qisqargan. Amudaryo dinamikasi xarakati natijasida uning egallagan maydoni 44 gektardan iborat bo‘lgan. Yodgorlik milodiy XIII asr boshlarida savdo va xunarmandchilik markazi bo‘lgan[1, c.49-55]. Katta Guldursun-Turkul tumani xududida noto‘g‘ri turtburchak shaklda umumiy maydoni 620x500 m- 31 ga. Milodiy V-VII asrlarda mudofaa devori va burjida ta’mirlash ishlari olib borilgan. Tashqi devordan 1,5 m qo‘sishmcha devorda aylana shaklda ikki qavatli burj qoldig‘i saqlanib qolgan[2, c. 51-64]. Buyuk Xorazmshoxlar davrida xarbiy qal’a vazifasini bajargan. Qizilqala Beruniy tumani xududida milodiy 1-asrda bino qilingan. To‘rt tomoni ikki qatorli mudofaa devor bilan o‘rab olingan, harbiy markaz vazifasini bajargan, milodiy XIII asr boshlarigacha harbiy qal’a vazifasini bajargan[3, c. 51-64]. Toshqala-2 Janubiy Xorazmni Tuproqqala massivi xududida Amudaryo sohili xududidagi tekislikka kvadrat shaklda bino qilingan, umumiy geografik o‘rnii 0, 5 ga. Yodgorlik XIII asr boshlarigacha faoliyat olib borgan, Daryo aloqa to‘liq rivojlanishi o‘z tarixiy o‘ringa ega[4].

Jampiqqala-Suoton Uvays tog‘i Qoratog‘ tizmasi tizimida balandlikda joylashgan, topografik tuzilishi uchburchak maydon xajmi 420x2x8 m. Yodgorlikda olib borilgan qazishma ishlari natijasida olingan ashylar mil.avv.XIII-XIV asrlarga oid bo‘lgan. Savdo va xunarmandchilik markazi bo‘lib, xalqaro karvon yuli taraqqiyotiga hissasi beqiyos bo‘lgan[5, 132-145].

Darg‘on-Xorazm Janubiy xududida Amudaryo sohili xududiga ulangan balandlikda joylashgan, maydoni-6 ga, X-XIII asrlarda maydoni 50 hektar, ark, Shaxriston va rabodga ega, milodiy XIII asr boshlarida savdo va xunarmandchilik markazi bo‘lgan, tashqi devor atroflarida uzumchilik xo‘jaligi rivojlangan [6, B. 62].

Xazarasp-Janubiy Xorazm darvozasi, Janubiy mudofaa chegarasi, mil.avv.VII asrdan, XIII asr boshlarida xunarmandchilik va savdo markazi bo‘lgan, axoli hozirgi vaqtida mudofaa devor himoyasida kundalik faoliyatlarini olib bormoqda [7, c.108-109].

Xiva (Ichangala)- Polvonyop (Xeykanik) magistral kanali (34 km) oxirida Qoraqum chizig‘ida bunyod qilinib, dehqonchilikka qulay tekisligini geografik qumlikdan ajratgan. Topografik joylashishi to‘g‘riburchak maydoni-26 hektar, milodiy XIII asrda xunarmandchilik, savdo markazi bo‘lgan, xalqaro karvon yo‘lni rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan, hozirgi vaqtida maxalliy va xorijiy sayyoxlarning kelish makoni hisoblanadi, adabiyotlarda ochiq muzey nomi qayd qilingan [8, B. 165-168].

Mizdhahqon- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xujayli shahridan 4 km janubi-g‘arbida balandlikda joylashgan, uning geografik xususiyati g‘arbiy va Sharqiy qismlarga bo‘lingan. G‘arbiy qismida arxeologik izlanishlar olib borilishi munosabati bilan olingan ashylar milodiy X-XIII asrlarga oid bo‘lib, xunarmandchilik va savdo markazlari bo‘lgan, uning atroflarida 12 ming “ko‘shk” lar mavjud bo‘lganligi aholi zinch joylashgan [9, c.153-155].

Katqala-Xorazm viloyati Shovot tumani Katqala qishlog‘i xududida joylashgan, topografik tuzilishi noto‘g‘ri trapesiya-300x281 m.-8,5 ga. Yodgorlikda Xorazm Ma’mun akademiyasi arxeologiya guruhi xodimlari qazishma ishlarni olib borib,mil.avv. V asr oxiridan rivojlangan o‘rtasidagi xunarmandchilik va savdo markazi bo‘lgan [10, c.65-76].

Gurganch-Ko‘xna Urganch (mahalliy aholida “Ko‘na”). Qadimgi mudofaa devorlari qoldiqlari saqlanib qolgan, rivojlangan o‘rtasidagi egallagan maydon 400 hektar.

Milodiy 997 yildan boshlab ma’muniylar, oltintosh va Buyuk Xorazmshox davlatining poytaxti bo‘lgan. Xalqaro karvon yulida joylashgan Sharq va G‘arbni savdo yuli bilan bog‘lagan [11, c.478].

Devkesgan (Vazir)-Tashhavuz viloyati xududida Ustyurt platosi sharqida tekislikka joylashgan, umumiyyat xajmi 28 hektar. Xorazm davlatining poytaxti bo‘lgan, xalqaro karvon yuli rivojlanishida tarixiy o‘rnini bor [12, c.3-76].

Zamaxshar-Turkmaniston Respublikasi Toshhavuz viloyati Taxta-tumanida joylashgan, topografik tuzilishi to‘g‘ri burchak, geografik o‘rnii 350x250 m-9 ga, Yodgorlik savdo va xunarmandchilik rivojlangan, xususan shisha mahsulotlari ishlab chiqarilgan [13, c.28-29].

Shohsanam-Tashhavuz viloyati xududida Dovdon irmog‘idan chiqarilgan Charmanyob sug‘orilish inshooti oxirgi qismida yozma manbalarda “Suburna” nomi bilan ma’lum (Suv burli). N.N.Vakturskaya yodgorligida olib borgan qazishma ishlari natijasida olingan ashylar rivojlangan o‘rta asr xunarmandchilik va savdo markazi bo‘lgan [14, c. 527-530].

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy – xolislik, tarixiy-xronologik taxlil, nazariy-qiyosiy talqin, asoslash, umumlashtirish, yakuniy xulosa, arxeologiya, etnografiya, geografiya, yutuqlari jalgilindi.

Taxlil va natijalar

O‘tgan asr adabiyotlar xamda mustaqillik yillarida tadqiqotchilar xamda arab geograflari va sayyoohlari asarlarida qayd qilingan xunarmandchilik markazining savdo va xunarmandchilik sohalari rivojlanish darajasi, axolining xunarmandchilik sohalarini rivojlantirishidagi tarixiy o‘rnii taxlil qilindi.

Natijalar bo‘yicha quyidagilarni qayd qilish mumkin:

- Birinchidan Xorazm vohasida milodiy VI asr ikkinchi yarmidan jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy munosabatlarning rivojlanishi yana boshlanganligi;

- Antik davrda axoli tomonidan bunyod qilingan qishloq va shaxarlarda ishlab chiqarish kuchlarining o‘sishi natijasida xunarmandchilikni turli sohalari suv ta’mnoti barqaror bo‘lganligi bois, rivojlanish jarayoni faollashishi

- IX-XI asrlarda qishloq va shaharlarda o‘rnashgan axoli xunarmandchilik tarmoqlari rivojlantirishi xilma-xil mahsulotlar ishlab chiqarilgan, bu esa ichki va xalqaro savdo yo‘llari rivojlanishida ahamiyati beqiyosligi kabi natijalar qayd qilindi:

Xulosa va takliflar

XX asr adabiyotlar va XXI asr boshlari tadqiqotchilar asarlarida qayd qilingan tarixiy ma’lumotlar nazariy-qiyosiy taxlildan xosil bo‘lgan umumlashtirilgan yakuniy xulosa quyidagilardan iborat:

- Milodiy VI asr ikkinchi yarmidan Amudaryo o‘ng va so‘l sohili madaniy-xo‘jalik markazlar, ularni doirasida mikrovohalarda axoli tomonidan xunarmandchilik sohalarini rivojlantirish natijalari IX-XI asrlar jamiyatining rivojlanishiga iqtisodiy manba bo‘ldi.

- Amudaryo suv ta’mnoti barqaror bo‘lganligi bois, Xorazmda antik davr yodgorliklari axolisi magistral sug‘orilish inshootlari suv yetib borganligi munosabati bilan kundalik faoliyatlarini jadallashtirdilar.

-IX-XI asrlarda Amudaryo o‘ng sohilida Katqala, Qavatqala, Burgutqala, Quyuqqala shaxarlari savdo va xunarmandchilik markazlariga aylandi. Mazkur tarixiy davrda o‘ng sohilda Kat, So‘l sohilda Gurganch, Zamaxshar, Xazarasp, Xiva, Kat shaxarlari nafaqat savdo-xunarmandchilik, diniy mafkuraviy markazlar bo‘lgan.

Takliflar quyidagicha izohlandi:

1. Amudaryo o‘ng va so‘l sohili, xududida rivojlanayotgan arxeoloigk yodgorliklarni madaniy-meros sifatida saqlanib qolishini avaylab saqlash, kelajak avlodga yetkazish hozirgi zamon ruxidan kelib chiqqanligi;

2. Ajdodlarimizning xayot va ijod uyg‘unligi bo‘lgan shaxarlar jamiyat taraqqiyoti mezoni ekanligi;

3. Madaniy meros ob’ektlariga Oliy o‘quv yurtlari, talabalari, mакtab-litsey va ta’lim o‘quvchilarini sayyohatini tashkil qilish, shu asnoda ajdodlarimizni murakkab bosib o‘tgan tarixiy yo‘lini o‘rganish “o‘tmishni unutma” g‘oyasi ilgari suriladi.

Foydalilanilgan adabiyyotlar

1. Манылов Ю.П. К изучению городища Кят // Вестник Каракалпакского филиала АН Уз ССР. – Нукус, 1966. – № 2. – С 49-55.
2. Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари. – Тошкент.: “Фан”, 2009. – Б. 45-46.
3. Ходжаниязов Г. К. Кзылкала (Работы 1981-1982 // Археология Приаралья. – Ташкент, “Фан”, 1986. Вып. 2. – С. 51-64.
4. Баратов С., Матрасулов Ш. Археологические работы в Южном Хорезме // Археологические исследования в Узбекистане в 2003 г. – Самарканд, 2004.
5. Ходжаниязов Г.К, Қдырниязов М.Ш, Доспанов А. Раскопки жилого квартала XII-XIV вв в Западной части Джанпыйкалье // Археология Приаралья. – Ташкент.: “Фан”, 1990. – С. 132-145.
6. Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари. – Тошкент: “Фан”, 2009. – Б. 62.
7. Собиров Қ., Рўзимов С. Археологические работы в Хазараспе // Вестник ККО АН РУз. – Нукус, 2003. – № 3-4. – С. 108-109.
8. Асқаров А. Хива шаҳар маданиятининг шаклланиши ва унинг асосий ривожланиш босқичлари. Инсониятнинг илмий ва маданий мероси-учинчи минг йилликка. Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишлиланган ҳалқаро симпозиум тезислари. – Тошкент., “Шарқ”, 1997. – Б. 165-168.
9. Туребеков М. Исследование Цитадели Гауркалы городища Миздахкан // Археологические исследования в Узбекистане в 2001 г. – Ташкент, 2002. – С. 153-155.

10. Мамбетуллаев М. Городище Кят (Левобережный и Зарликишанбаба // Археологические исследования в Каракалпакии. – Нукус, 1981. – С. 65-76.
11. Вактурская Н.Н. Раскопки городища в 1952 г // ТрХАЭЭ. – М.: “Наука”, 1958. – С. 478.
12. Хожаниязов Г.К., Хакимниязов Ж. Городище Девкескен-Вазир. – Нукус, “Билим”, 1997. – С.3-76.
13. Ершов С.А. Археология Туркменистана за 20 лет // Известия Турк АН 2-3. 1944. – С. 28-29.
14. Вактурская Н.Н. Раскопки на городище Садвар //АО 1974. – М.: “Наука”, 1975. – С. 527-530.